

infrastructure, reforming pension and insurance systems, and improving the regulatory environment will significantly enhance the role of institutional investors.

The development of institutional investors will contribute to deeper financial markets, increased investment activity, improved corporate governance, and greater financial stability in Uzbekistan.

References:

1. *World Bank. (2023). Uzbekistan Financial Sector Development Report.*
2. *International Monetary Fund. (2022). Financial Sector Assessment Program: Uzbekistan.*
3. *Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2023). Annual Report.*
4. *Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan. (2023). Financial Market Development Strategy.*
5. *Mishkin, F. (2019). The Economics of Money, Banking and Financial Markets. Pearson Education.*
6. *Fabozzi, F. (2018). Institutional Investment Management. Wiley Finance.*

MOLIYA BOZORI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA YASHIRIN IQTISODIYOT BILAN KURASHISH JIHLTLARI

B.B.Valiyev

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Iqtisodiy fanlar kafedrasi professori

Moliya bozori har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning barqarorligi iqtisodiy o'sish, investitsion faoliyatni rivojlantirish va makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq moliya bozori samarali faoliyat yuritishi uchun iqtisodiy jarayonlarning shaffofligi muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, yashirin iqtisodiyotning mavjudligi moliya bozori barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yashirin iqtisodiyot davlat tomonidan rasmiy hisobga olinmaydigan, soliqqa tortilmaydigan yoki qonunchilik talablariga to'liq rioya qilmagan holda amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatlar majmuasidir. Ilmiy adabiyotlarda yashirin iqtisodiyot tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Jumladan, iqtisodchi olim **Friedrich Schneider**⁴⁵ yashirin iqtisodiyotni rasmiy statistika va soliq tizimidan yashirilgan iqtisodiy faoliyat sifatida ta'riflaydi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, yashirin iqtisodiyot hajmi yuqori bo'lgan mamlakatlarda davlat moliyaviy tizimining samaradorligi pasayadi, chunki iqtisodiy operatsiyalarning muhim qismi rasmiy nazoratdan tashqarida amalga oshiriladi. Shuningdek, iqtisodchi **Edgar Feige**⁴⁶ yashirin iqtisodiyotni iqtisodiy faoliyatning rasmiy hisobotlardan yashirilgan qismi sifatida izohlaydi va u davlat fiskal siyosatining samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

Yashirin iqtisodiyotning paydo bo'lishi va rivojlanishiga bir qator iqtisodiy va institutsional omillar sabab bo'ladi. Ularga yuqori soliq yuklamasi, davlat nazoratining

⁴⁵ Friedrich Schneider. *Shadow Economies Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years?* — International Monetary Fund Working Paper, 2012.

⁴⁶ Feige E. *The Underground Economy and the Measurement of GDP.*

yetarli darajada samarali emasligi, korrupsiya darajasining yuqoriligi, institutsional muhitning zaifligi hamda iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish jarayonining murakkabligi kiradi. Bundan tashqari, naqd pul aylanmasining yuqoriligi ham yashirin iqtisodiyotning kengayishiga xizmat qiladi. Bunday sharoitda iqtisodiy subyektlar o'z faoliyatini rasmiy sektordan yashirishga harakat qiladi, natijada iqtisodiyotning ma'lum qismi davlat nazoratidan tashqarida qoladi. Yashirin iqtisodiyot moliya bozori barqarorligiga bir nechta yo'nalishda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, u davlat byudjeti daromadlarining kamayishiga olib keladi. Chunki yashirin iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan subyektlar soliqlarni to'lamaydi yoki ularni yashirishga harakat qiladi. Natijada davlat byudjetiga tushadigan daromadlar kamayadi va davlatning ijtimoiy hamda iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatlari cheklanadi. Bu esa moliya tizimining barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi.

Ikkinchidan, yashirin iqtisodiyot moliyaviy tizimning shaffofligini pasaytiradi. Norasmiy iqtisodiy faoliyat natijasida pul oqimlarining muhim qismi bank tizimidan tashqarida aylanadi. Bu holat pul-kredit siyosatining samaradorligini pasaytiradi hamda markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan monetar siyosat mexanizmlarining ta'sirini cheklaydi. Natijada iqtisodiyotdagi real pul massasi va rasmiy statistik ma'lumotlar o'rtasida tafovut yuzaga keladi.

Uchinchidan, yashirin iqtisodiyot investitsiya muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Rasmiy iqtisodiy faoliyat bilan yashirin faoliyat o'rtasidagi farq kuchaygan sari iqtisodiy muhitning shaffofligi pasayadi. Bu esa investorlar uchun qo'shimcha risklar keltirib chiqaradi. Natijada mamlakat moliya bozoriga jalb qilinadigan investitsiyalar hajmi kamayishi mumkin. Shuningdek, yashirin iqtisodiyot noqonuniy kapital harakatlarini kuchaytirishi va moliyaviy spekulatsiyalarni rag'batlantirishi mumkin.

Iqtisodiyot nazariyasida yashirin iqtisodiyot bilan kurashishning ilmiy asoslari bir necha konseptual yondashuvlarga tayanadi. Ulardan biri institutsional yondashuv hisoblanadi. Institutsional iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy faoliyatning rasmiy sektorida samarali faoliyat yuritish uchun kuchli institutlar zarur. Bu institutlarga mustahkam qonunchilik tizimi, samarali davlat boshqaruvi, shaffof iqtisodiy muhit va samarali nazorat mexanizmlari kiradi. Agar davlat institutlari samarali faoliyat yuritsa, iqtisodiy subyektlar rasmiy sektorda faoliyat yuritishga ko'proq intiladi.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda fiskal siyosat ham muhim rol o'ynaydi. Fiskal nazariyaga ko'ra, soliq yuklamasi haddan tashqari yuqori bo'lsa, iqtisodiy subyektlar soliq to'lashdan qochish maqsadida yashirin iqtisodiyotga o'tadi. Shu sababli soliq stavkalarini optimallashtirish, soliq tizimini soddalashtirish va soliq ma'murchiligini takomillashtirish yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirishga yordam beradi. Soliq tizimi qanchalik sodda va adolatli bo'lsa, iqtisodiy subyektlarning rasmiy faoliyat yuritish istagi shunchalik ortadi. Monetar yondashuv ham yashirin iqtisodiyotni o'rganishda keng qo'llaniladi⁴⁷. Ushbu yondashuvga ko'ra, yashirin iqtisodiyot ko'pincha naqd pul operatsiyalari orqali amalga oshiriladi. Shu sababli iqtisodiyotda naqd pul ulushi yuqori bo'lsa, yashirin iqtisodiyot hajmi ham katta bo'lishi mumkin. Markaziy banklar tomonidan naqd pulsiz to'lov tizimlarini rivojlantirish, elektron to'lovlar ulushini oshirish va bank tizimining rivojlanishini rag'batlantirish yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirishga xizmat qiladi.

⁴⁷ Ahmad W., Hussain B. "Fiscal Policy Effects on Shadow Economy: Empirical Evidence from Developing Countries." // Asian Journal of Applied Economics, 2023.

O'zbekistonda 2030 yilga qadar kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushini qisqartirish, naqdsiz to'lovlarni kengaytirish va rasmiy bandlikni oshirish orqali iqtisodiy shaffoflikni mustahkamlash bo'yicha katta islohotlarga kirishildi. Prezidentning 2025 yil 10 dekabrda "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-246-son farmoni qabul qilindi. Yangi hujjat mamlakatda iqtisodiy faollikni oshirish, raqobat muhitini mustahkamlash hamda biznesni yashirin iqtisodiyot aylanmalaridan chiqarib, to'liq rasmiy faoliyat yuritishga rag'batlantirishga qaratilgan.

2025 yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekistonda uy xo'jaliklari, jismoniy shaxslar faoliyati va yashirin operatsiyalarni qamrab olgan norasmiy iqtisodiyot hajmi 498 trillion 45,2 milliard so'm deb baholangan. Bu ko'rsatkich respublika yalpi ichki mahsulotining 26,9 foiziga teng. Bir yil oldin ushbu ulush 34,8 foizni tashkil etgani qayd etiladi. Kuzatilmaydigan iqtisodiyot tarkibida 29,5 foiz (147 005 mlrd so'm) yashirin iqtisodiyot hissasiga, 70,5 foiz (351 040 mlrd so'm) esa uy xo'jaliklari va jismoniy shaxslar tomonidan rasmiy ro'yxatdan o'tmasdan amalga oshiriladigan faoliyatga to'g'ri keladi⁴⁸.

Sohalar kesimida eng katta ulush qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga — 62,6 foiz. Shuningdek, qurilishda 23,5 foiz, xizmatlar sohasida 26,9 foiz va sanoatda 9,4 foiz ulush qayd etilgan. Kuzatilmaydigan iqtisodiyot tushunchasi rasmiy statistikada to'liq aks etmaydigan barcha turdagi iqtisodiy faoliyatni qamrab oladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2024 yilda YaIMdagi kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushi 34,8% (505 trln so'm)ni tashkil etdi. Shundan yashirin iqtisodiyot 24,1% (122 trln so'm), norasmiy iqtisodiyot esa 75,9% (384 trln so'm). Kuzatilmaydigan iqtisodiyot — bu vakolatli organlar tomonidan rasmiy ro'yxatga olinmagan va statistik kuzatuvlar doirasiga kiritilmagan iqtisodiy faoliyat bo'lib, unga yashirin, norasmiy va noqonuniy iqtisodiyot turlari kiradi.

O'zbekistonda 2030 yilga qadar maqsadli ko'rsatkichlar, YaIMga nisbatan kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushini kamaytirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu ko'rsatkichni 2030 yilga kelib uni 23%ga tushirish rejalashtirilgan. Bu o'zgarish yashirin iqtisodiyot ulushini taxminan 1,3 barobar qisqartirishni anglatadi va iqtisodiy faoliyatning oshkora bo'lishiga xizmat qiladi. Savdo va xizmat ko'rsatish sohasida naqd pulsiz to'lovlarning ulushi ham sezilarli oshirilishi mo'ljallangan. 2024 yilda bu ko'rsatkich 66%ni tashkil etgan bo'lsa, uni 2030 yilga kelib 75%ga yetkaziladi. Bu esa naqdsiz to'lovlarning ulushining 1,2 barobar o'sishini ta'minlab, xizmatlar bozorida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytiradi.

Dunyo mamlakatlarida norasmiy iqtisodiyot ko'lamiga ko'ra A, B, C, D, E toifalariga ajratilgan. A toifa mamlakatlari iqtisodiyotida norasmiy munosabatlar eng kam bo'lib, iqtisodiy holati yaxshi ijobiy baholangan. E guruhiga kiruvchi davlatlarda esa norasmiy iqtisodiyot ulushi yuqori hisoblanadi⁴⁹. Yalpi ichki mahsulotiga nisbatan norasmiy iqtisodiyot ulushi Shveysariya (6,9%), Avstriya (7,2%), AQSh (7,3%), Lyuksemburg (9,3%), Niderlandiya (9,4%), Yaponiya (10,3%), Xitoy (12,1%), Qatar (16%) kabi davlatlarda past bo'lib, mazkur mamlakatlar A guruhidan joy olgan. Ispaniya (20,2%), Italiya (20,7%), Saudiya Arabistoni (21,3%), Indoneziya (22,8%), Janubiy Koreya (23,4%) kabi davlatlarda esa holat yaxshi bo'lib, V guruhdan joy egallaganlar. Afg'oniston (72,9%), Nigeriya (57,2%), Boliviya (50,2%), Gruziya (49,5%), Ozarbayjon

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekistonda kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar, 2025 yil yakunlari. <https://stat.uz>

⁴⁹ <https://www.worldeconomics.com/Rankings/Economies-By-Informal-Economy-Size.aspx>

(47,9%), Tayland (42,5%) kabi mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot yuqoriligicha qolmoqda⁵⁰.

Islotlarda mamlakatning xalqaro reytinglardagi mavqeini yaxshilash ham ko'zda tutilgan. Iqtisodiy erkinlik indeksida O'zbekistonning o'zni 2024 yilda 103-pog'ona bo'lgan. 2030 yilda mamlakatni 73-o'ringa ko'tarish choralari belgilangan. 30 pog'onalik bu siljish iqtisodiy muhit erkinlik, biznes yuritish sharoitlari yaxshilanishi va investitsiyaviy jozibadorlikning oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Korrupsiyani qabul qilish indeksidagi natijalarni yaxshilash bo'yicha ham aniq ko'rsatkichlar belgilandi. 2024 yilda O'zbekiston 121-o'rinda qayd etilgan bo'lsa, 2030 yilga kelib mamlakat ushbu reytingda 91-o'ringa chiqishi mo'ljallangan. Ya'ni 30 pog'onalik ijobiy o'sish korrupsiyaga qarshi islohotlar samaradorligini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida aytish mumkin, yashirin iqtisodiyot bilan kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari soliq-byudjet siyosatini optimallashtirish va tadbirkorlik uchun iqtisodiy yukni muvozanatlash, mehnat munosabatlarini institutsional isloh qilish va norasmiy bandlikni rasmiy sektorga o'tkazish, naqd pulga bog'liqlikni kamaytirish va raqamli to'lov infratuzilmasini to'liq joriy etish, soliq va moliyaviy ma'muriyatchiligini to'liq raqamlashtirish va ma'lumotlar integratsiyasini ta'minlash, barqaror, prognoz qilinadigan va soddalashtirilgan huquqiy muhitni shakllantirish, davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish va korrupsiyani tizimli ravishda cheklash, rasmiy iqtisodiy faoliyatni iqtisodiy jihatdan jozibali qilish va rag'batlantirish tizimini kuchaytirish lozim. Biznes faqat jazo qo'rquvi bilan emas, manfaat orqali legallasadi. Legal faoliyat norasmiy faoliyatga nisbatan afzal bo'lishi shart.

BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA ESG TAMOYILLARINING IQTISODIY MAZMUNI

Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li
Qo'qon universiteti, i.f.f.d, dotsent v.b

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi barqaror rivojlanish konsepsiyasining nazariy asoslari hamda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining iqtisodiy mazmuni o'rganilgan. Tadqiqotda barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) bilan ESG mezonlari o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. Shuningdek, ESG tamoyillarining korporativ boshqaruv, investitsiya jarayonlari hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli ko'rib chiqiladi. ESG tamoyillarini joriy etish barqarorlikni ta'minlashning ustuvor vazifasi sifatida o'rganilgana. Shuningdek, tezis ESG yondashuvini iqtisodiy faoliyatga joriy etish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Barqaror rivojlanish maqsadlari, ESG, ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat, korporativ boshqaruv, tabiiy resurslar, investitsiyalar.

Iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash masalasi xalqaro miqyosda dolzarb muammoga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo barcha davlatlar tomonidan qabul

⁵⁰ World Bank. Informal Economy and Development: Global Estimates and Policy Implications. Washington, DC: World Bank, 2024. <https://www.worldbank.org>